

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**H.A.Abdualiyev**

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) ..... 101

**M.X.Otamirzayeva**

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari ..... 108

---

**ILMIY AXBOROT****M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov**

Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi ..... 115

**A.A.Mirzayev**

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari ..... 119

**J.J.Shodiyev**

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari ..... 125

**M.И.Темирова**

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari ..... 130

**A.M.Mamajonov**

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari ..... 135

**P.Sh.Kaxramonova**

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) ..... 141

**J.U.Umaraliyeva**

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi ..... 144

**D.S.Ergasheva**

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish ..... 148

**D.X.G'aniyeva**

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari ..... 153

**X.X.Abduraxmonov**

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish ..... 157

**G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova**

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) ..... 161

**O.Q.Abdullayev**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ..... 164

**J.Sh.Nazarov**

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati ..... 168

**Sh.F.Latipov**

Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar ..... 173

**D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova**

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi ..... 175

**Sh.M.Robilova**

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati ..... 179

**M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova**

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar ..... 183

**R.R.Abdusattorov**

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari ..... 186

**H.Arabboyev**

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi ..... 192

**F.Xalikov**

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari ..... 197

**M.I.Yusupova**

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi ..... 204

**“TA’LIM” MIKROMAYDONINING PAREMIOLOGIK BIRLIKLARI**  
**ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ МИКРОПОЛЯ «ОБРАЗОВАНИЯ»**  
**PAREMIOLOGICAL UNITS OF THE MICROFIELD "EDUCATION"**

**<sup>1</sup>G’aniyeva Dilafruz Xasanboy qizi**

<sup>1</sup>Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Tilshunoslikda, qiyosiy tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasini tillaragi paremiologik birliklar orqali o‘rganilishi, bu boradagi leksik-semantik, struktural o‘ziga xosliklar yoritilgan tadqiqotlar ko‘pligiga qaramasdan, o‘zbek va ingliz tillarining “ta’lim” mikromaydoniga taalluqli paremiologik birliklar atroficha izchil o‘rganilmagan. Ushbu maqolada ana shunday zarurat hisobga olinib, ikki tildagi paremiologik birliklarning struktur tuzilishlari, semantikasi va tilda bajaradigan funksiyalari atroficha tahlil qilinadi. Bu tahlilda kontekstual tavsiflash, qiyosiy, semantik va lingvokulturologik tahlil metodlari qo‘llanilib, o‘zbek va ingliz tilidagi “ta’lim” ga aloqador birliklar qiyosiy o‘rganildi, ularning struktural oddiy va murakkab turlari, semantik vazifalari yoritib berildi.*

**Аннотация**

*В языкознании, в сравнительном языкознании проведено большое количество исследований, связанных с языковой картиной мира. Несмотря на исследования лексико-семантических, структурных особенностей паремиологических единиц, до сих пор мало известно о паремиологических единицах, относящихся к микрополю «образование» в узбекском и английском языках. В данной статье, учитывая эту необходимость, подробно анализируются структурные структуры, семантика и функции паремиологических единиц двух языков. В данном анализе были использованы методы контекстного описания, сопоставительного, семантического и лингвокультурологического анализа, сравнительно изучены единицы, относящиеся к «образованию» в узбекском и английском языках, уточнены их структурные простые и сложные типы, семантические функции.*

**Abstract**

*In linguistics, in comparative linguistics carried out the large number of studies related to the linguistic world picture. Despite the studies of lexical-semantic, structural peculiarities of paremiological units, still it is little known about paremiological units related to the micro-field of "education" in Uzbek and English languages. In this article, considering this need, the structural structures, semantics and functions of paremiological units in two languages are thoroughly analyzed. In this analysis, the methods of contextual description, comparative, semantic and lingucultural analysis were used, units related to "education" in Uzbek and English languages were comparatively studied, their structural simple and complex types, semantic functions were clarified.*

**Kalit so‘zlar:** olaming lisoniy manzarasi, paremiologik birlik, maqol, obrazlilik, pand-nasihah, motivlar, deformatsiya, sinonimiya.

**Ключевые слова:** языковой картиной ммира, паремиологическое единство, пословица, образность, совет, мотивы, деформация, синонимия.

**Key words:** linguistic picture of the world, paremiological units, proverb, imagery, advice, motives, deformation, synonymy.

**KIRISH**

Ta’lim insoniyat hayotining ajralmas qismi ekan, ta’limga aloqador har bir lisoniy vosita o‘zida madaniyatni ham aks ettiradi. R.Madjidova har bir til shu tilda so‘zlashuvchining dunyoqarashini shakllantiradigan milliy, o‘ziga xos xususiyatlar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi, bular esa, shaxs tomonidan umuminsoniy, universal qadriyatlarning o‘ziga xos talqini natijasida yig‘iladi, deya ta’riflaydi.[1.15]

Tahlil qilinayotgan “ta’lim” mikromaydonini tashkil etuvchi lug‘aviy birliklarda ham o‘zbek xalqining madaniyati, qadriyatlari va mentaliteti, tarixiy va hududiy omillarni aks ettiruvchi lingvomadaniy paremiologik birliklarni ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tilida ta’lim olishga, o‘qib o‘rganishga da’vat qiluvchi, ilmiy bo‘lishning ahamiyati va muhimligini ifodalashga asoslangan paremiologik birliklarning katta qismini tashkil qiluvchi maqollar tahlil qilinadi. Dunyo tilshunosligida olamning lisoniy manzarasini dunyo tillaridagi paremiologik birliklar orqali qiyoslab o‘rganilishi va bu boradagi leksik semantik, struktural o‘ziga xosliklar tadqiqotiga bag‘ishlangan izlanishlar juda ko‘pligiga qaramasdan, bu jihat o‘zbek va ingliz tillari misolida keng va atroficha o‘rganilmaganligini ta’kidlash joiz. Bu mavzuning

dolzarbligidan, har ikkala tildagi paremiologik birliklarning struktur tuzilishlarini, semantikasini va tilda bajaradigan funksiyalarini atroflicha va chuqur o'rganish zaruratini taqazo qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Asosiy manbaa sifatida K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Poslovisy" kitobidagi o'zbek va ingliz tillaridagi mavzuga oid maqollari, hamda o'zbek tilshunos olimlaridan To'ra Mirzaev, Asqar Musaqluv, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek xalq maqollari", Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning "Hikmatnoma", "Ma'nolar xazinası" kitoblaridan o'zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlarining ifodalanishida, K.Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" kabi manbalardan o'zbek xalq maqollarining nazariy tahlili uchun, ingliz tilida Jon Simpson va Jennifer Speakelarning "The Oxford dictionary of Proverbs" ning 5-nashridan foydalanilgan va asoslari keltirib o'tilgan. Mazkur maqolada keltirilgan manbaalar asosida kontekstual tavsiflash, qiyosiy, semantik va lingvokulturologik tahlil metodlari qo'llanilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolamizda o'zbek va ingliz tillarida bevosita va bilvosita "ta'lim" mikromaydoniga taalluqli ta'lim olish, o'qib o'rganishni da'vat qilishga asoslangan maqollarni struktur, leksik-semantik va pragmatik aspektda tahlil qilib o'rganishni, bu jarayonda esa quyidagi vazifalarni maqsad qilib qo'ydik:

- 1) tilshunoslikda paremiologik birlik tushunchasining mohiyatini aniqlash;
- 2) paremiologik lisoniy birliklarning alohida o'rganilishining nazariy muammolarini aniqlash;
- 3) o'zbek va ingliz tillaridagi "ta'lim" mikromaydoniga taalluqli maqollardagi universallik va unikalikni, struktural-semantik tuzilishlaridagi farqlarni aniqlash.
- 4) maqollardagi deformatsiya hodisasi va motivlar silsilaviyligini tahlil qilish.

Barchamizga ma'lumki, maqollar — xalq og'zaki ijodi merosining keng tarqalgan o'ziga xos janri hisoblanib, unda xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari aks etgan yoki metaforik tarzda yashiringan bo'ladi. Shuningdek, maqollar ularni yaratgan xalqning donoligini o'zida mujassam etadi va ular orqali turlicha bo'lgan madaniy qadriyatlar, stereotiplar tilda mustahkamlanib, avlodlardan avlodlarga ko'chadi.

Tilshunoslikda yunoncha «paroimia» so'zidan kelib chiqqan va bizning tilimizda maqol, matal ma'nosida qo'llaniladigan paremiyalar dunyo tillariga xos umumiy ma'no ifodalash xususiyati – universallik harakteriga egadir. Paremiologik birliklar muayyan bir xalqning uzoq davom etgan madaniy-tarixiy taraqqiyotini aks ettirar ekan, ular orqali xalqning olamni lisoniy tasavvurini tilda mustahkam o'rin olgan tushunchalardagi obrazlar sistemasi orqali hosil qiladi.

Shuningdek, maqol xalq majoziy iboralari sifatida voqea– hodisalar, holat va harakatlarni obrazli ifodalashda ko'chma ma'noda ham keng qo'llaniladi. Bunday maqollarda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq kabi badiiy-stilistik vositalardan mohirlik bilan foydalaniladi. Maqollar, asosan, didaktik ya'ni pand-nasihat harakteriga ega bo'lib, Bahodir Sarimsoqovning ta'kidlashicha, "Maqollar ham o'z, ham ko'chma ma'noda qo'llana olish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat maqollarning tematik doirasini, qo'llanilish darajasini kengaytiradi"[1]. Zero, maqollar va ulardagi lingvomadaniy xususiyatlar xalqlar o'rtasidagi mental farqlarni yaqqol ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Maqollar ajdodlarning ma'naviy merosi sifatida avlodlardan avlodga ko'chish jarayonida ba'zi maqollar deformatsiya hodisasiga uchraydi. O'zbek tilida tahlil qilinayotgan maydonimizga taalluqli quyidagi maqollarda deformatsiya hodisasini ko'rishimiz mumkin.

*Ustoz otangdek ulug' – Ustoz otangdan ulug'.*

*Mullaning aytganini qil, qilganini qilma yoki Domlaning aytganini qil, qilganini qilma* kabilar.

Ingliz tilida ham ta'lim mikromaydonining periferiysiga taalluqli paremalarda deformatsiya kuzatiladi. Masalan, *It is never too late to learn – Never too old to learn.* So'zma so'z tarjimasi: *O'rganish uchun hech qachon kech emas – O'rganish uchun hech qachon qari emas.*

Maqollar iboralardan farqli to'liq sintaktik shaklga ega bo'lib, tugallangan fikrni bevosita ifodalashi barchamizga ma'lum. Maqollar sintaktik tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab paremalarga bo'linadi. Sodda paremalar ikki va undan ortiq elementlardan, ya'ni gap bo'laklaridan iborat bo'lsa, murakkab paremalar ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topadi. Maqollarning ikki tilda sintaktik shakliga ko'ra quyidagi maqol turlari aniqlandi va qiyosiy tahlil qilindi.

**Birinchi turimiz**, ko‘pincha darak gap shaklida bo‘ladigan, bir sintaktik butunlikdan iborat, ya‘ni bir qismli maqollardir. Aynan shu tomonlari bilan o‘zbek va ingliz xalq maqollari juda o‘xshashdir. Quyidagi maqollarda bu xususiyatni ko‘rishimiz mumkin.

*Actions speak louder than words = Gap bilguncha — ish bil.*

*Beshikdan to qabrgacha ilm izla = “Seek knowledge from the cradle to the grave”*

**Ikkinchi turimiz** tarkibiga kiruvchi maqollar esa, ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

*Art is long, life is short. = Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar.*

**Uchinchi turimiz**, 4 komponentli maqollar. Ular kam sonli bo‘lsa-da, o‘zbek tilida uchrab turadi. Biroq ingliz maqollari orasida 4 komponentli maqollar deyarli uchramaydi.

*Zamon seni o‘qitar,*

*Tayoq bilan so‘kitar.*

*Sabog‘ingni bilmasang,*

*Do‘konda bo‘z to‘qitar.*

Tadqiqot doiramizdagi maqollarga xos yana bir xususiyat, ular orasida shakli boshqa bo‘lsada, mazmuni bir xil bo‘lgan sinonimik qator hosil qiluvchi maqollar namunalarining har ikki tilda ham anchagina uchratish mumkinligidir. Bunday maqollar motivlar silsilaviyiligi asosida yuzaga keladi.

O‘zbek tilida: “*Avval bil, keyin qil*” maqolidagi bilish motivi “*Avval o‘rgan, keyin o‘rgat*”, “*Bildirish uchun bilish kerak*” kabi maqollarda silsilaviylikni hosil qilgan bo‘lsa, “*Bilgan o‘zar, bilmagan to‘zar*” maqolida “*Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir*”, “*Bilgan bitirar, bilmagan yitirar*”, *Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog‘in tishlar*” maqollarida keltirilgan yaxshi va yomon nisbatlarning qarama-qarshi qo‘yilishi natijasida antonimiya hodisasini kuzatishimiz mumkin.

Premiologik birliklarning asosiy tiplarini aniqlash uchun dastavval ularning alohida ajralib turuvchi lisoniy belgilarini aniqlash zarur. G.L. Permyakov bu belgilarning quyidagi tiplarga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladi: [8.15]

1. Birlik ifodalaydigan ma‘no va shaklning turg‘unligi: ***The Devil knows many things because he is old.*** So‘zma so‘z tarjimasida: shayton ko‘p narsani biladi, chunki ko‘p yashagan. O‘zbek tilida esa “*Qari bilganni pari bilmas*” maqoli orqali ifodalanadi. Maqolning o‘zbek tilidagi ekvivalentida semantik adekvatlik mavjud bo‘lsa xam, olamning lisoniy manzarasi bu o‘rinda turlicha tushunchalar orqali tasavvur qilinishini va ikki tilda katta farq bilan ishlatilishini kuzatamiz. Masalan, maqolning o‘zbekcha variantida ijobiy ma‘no keksalarning hamisha hurmat qilib e‘zozlanganligi, yoshlarning ularning tajribalaridan maslahat so‘rashlari, qadriyatlarimiz va madaniyatimiz asosida shakllanganligini bildirib turadi.

Bu o‘rinda maqoldagi shayton obrazi o‘zbek xalqi tomonidan hech qachon ijobiy baholanmagan va inglizcha ushbu maqolga o‘zbek tilida boshqa variant qidirish ehtiyojini paydo qiladi.

2. Premiologik birliklar gap (jumla)ga o‘xshash konstruksiyalarning alohida ko‘rinishi bo‘lib, modallik, shaxs kategoriyasi, zamonning sintaktik usulda ifodalanishi, qandaydir fikrni tasdiqlashi va qandaydir fikrni inkor qilishga asoslangan predikativ hodisadir. Masalan, *Shogirdiga tosh bergan tosh olar, Bosh bergan bosh olar.*

Ushbu maqolda ustoz shogirdiga qanday ta‘lim bersa, nimani o‘rgatsa, natijasi ham o‘ziga qaytishi haqidagi fikr tasdig‘ini ko‘rishimiz mumkin

3. Obrazlilik: *Shogirding oqil bo‘lsa, boshingda toj, Shogirding erka bo‘lsa, boshga tayoq.*

Bu o‘rinda obrazlilik har toj va tayoq kabi predmet nomi bilan ifodalanib, oqil shogird toj kabi ustozga sharaf yekltirsa, erka shogird ustozga dashnom bo‘lishi obrazlik ifodalanagan.

4. Pand-nasihat (tarbiyaviy) ma‘noda qo‘llanilishi: Qadimda ustoz-shogird munosabatini ifodalash uchun qo‘llaniluvchi “***Ustoz ko‘rgan shogird andin-mandin qarmalar, ustoz ko‘rmagan shogird har maqomda yo‘rg‘alar***” maqolida qachonlardir ushbu maqol ikki qismdan iborat bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Maqolning birinchi qismi ziyrak shogird faqat o‘z ustozini ko‘rsatmalari bilan cheklanmay, boshqa ustozlar faoliyatini sinchkovlik ila kuzatish asnosida ularning ilm va tajriba sirlarini o‘zlashtirib borishi axloqiy ibrat tarzida ifodasini topgan bo‘lsa, ikkinchi qismida ustoz ko‘rmagan, ya‘ni shogird tushib, ustozning ko‘rsatmalarini olmagan kishining har maqomda yo‘rg‘alishi — uquvsizligi kesatilib, har bir ishda, ilm va ta‘limda ham munosib ustoz

topish kerakligiga ishora qilinmoqda. Davrlar o'tishi bilan maqolning birinchi qismi tushib qolib, maqol yanada ixcham xolatga kelgan.

5. Ifodalanayotgan semantik ma'noning pragmatik xarakterda, ya'ni fon bilimlarga asoslanib, bilvosita ifodalanishi. Bunday maqollar har ikkala tilda ham juda ko'pchilikni tashkil qiladi va o'zbek tilidagi ekvivalentlarining ko'p variantliligi bilan xarakterlanadi: O'zbek tilida obrazlilik boshqa obyekt bilan ifodalanadi:

*Mulla palovga o'ch, Bangi — olovga.*

*Mulla soqoliga oro berar, Lo'li — zulfiga* kabi maqollarda mulla lug'aviy birligining salbiy bo'yoqlarda pragmatik harakterda ifodalanayotganini ya'ni ilmga emas, balki ziyofat, tashqi ko'rinishga qo'proq ahamiyat berishini kuzatamiz..

Ingliz tilida esa: *Experience is the best teacher – Yexperience is the father of wisdom*

6. O'zbekcha maqollar ushbu mikromaydon doirasida o'ta milliyiligi bilan xarakterlanadi. Bunday maqollarni ingliz tilida ekvivalentlari mavjud bo'lmaganligi uchun ularni izohli tarjima usulida tarjima qilishga to'g'ri keladi:

*Mulla folbinni ko'rolmas, Eshon — ikkalasini ham.*

maqolida mulla, eshon lug'aviy birliklari ana shunday milliylik bilan xarakterlanadi.

#### XULOSA

Tahlil qilingan "ta'lim" mikromaydoni paremiologik birliklari har ikki tilda ham sodda va murakkab tuzilishga ega bo'lib, semantik jihatdan pand-nasihah, obrazlilik, milliylik xususiyatlariga egadir. Shuningdek, har ikki tilda ham bu maydon doirasida deformatsiyaga uchragan paremiologik birliklar mavjud.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ganieva, D., & Moxichexra, I. (2022). STUDY OF SYNONYMS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *Conferencea*, 56-57.
2. Jennifer Speake. Oxford Quick "The Oxford dictionary of Proverbs" 5<sup>th</sup> edition. Oxford university press.
3. Khasanovna, G. D. (2022). Three levels of access in the semantic group of "educational process participants" in the uzbek and English languages.
4. Madaliyevna, I. S., & Khasanovna, G. D. (2021). Comparative study of "assessment system" in the semantic field of "education". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 969-973.
5. K.M.Кароматова ва X.C.Кароматовларнинг "Провербс. Мақоллар. Пословицы"
6. Маджидова Р.У. Антропотцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. Фарғона, 2020. – Б.15.
7. О.Сафаров "Ўзбек халқ оғзакии поетик ижоди"
8. Пермьяков Г. Л. От поговорки до сказки. М., 1970, 240 б.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Т.Мирзаев, Б. Саримсоқов. Тошкент. 1989й.